



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UNLI FONEMALAR TASNIFI

Ibodullayeva Ro‘zigul G‘ofurjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: rozigulibodullayeva09@gmail.com
Tel: +998889502307

Qalandarova Dilafro‘z Abdujamilovna
Ilmiy maslahatchi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori [PhD]
E-mail: d.kalandarova2017@yandex.ru
Tel: +998911339677

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida unli va undosh fonemalar tasnifi, ularning hosil bo‘lish xususiyatlari hamda fonologik jihatlari tahlil qilingan. Unlilar tizimi bo‘yicha ilmiy qarashlar, ularning tasnifi, shuningdek, undosh fonemalarning hosil bo‘lish o‘rni, usuli va ovoz hamda shovqin ishtirokiga ko‘ra turlari yoritilgan. Maqola o‘zbek tilining fonetik tizimini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. unli fonema, undosh tovush, vokalizm, konsonantizm, fonetika, tasnif.

Kirish

Fonetika tilshunoslikning nutq tovushlarini o‘rganuvchi bo‘limidir. Nutq tovushlari unli va undosh fonemalarga bo‘linadi. Unli tovushlar nutqning ohangdorligini ta‘minlovchi asosiy elementlardan biri bo‘lib, til tizimida muhim o‘rin egallaydi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘zbek tilshunosligida unli va undosh fonemalarni ilmiy jihatdan tasniflash dolzarb masalalardan biridir.

Tahlil va natijalar. Vokalizm – muayyan tildagi unli fonemalar tizimidir. O‘zbek tilshunosligida hozirgi o‘zbek adabiy tili unli lari miqdori masalasida ikki xil fikr mavjud:

Birinchi fikrga ko‘ra adabiy til unli lari 6 ta: i, e, a, u, o‘, o. (Bu fikr tarafdorlari qatorida Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, A.G‘. G‘ulomov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Kamolov, A. Mahmudov, S. Otamirzayeva, A. Abduazizov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev va boshqalar bor).

Ikkinchi fikrga ko‘ra hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida 8-9 unli (i, ı, ə, a, ü, u, ø, o, e) mavjud bo‘lib, ular eski o‘zbek adabiy tilida va hozirgi qipchoq lahjalarida bo‘lganidek kontrast juftliklarni (i-ı, ə-a, ü-u, ø-o zidlashlarini) hosil qiladi, shundan kelib chiqib, adabiy til vokalizmi va alifbo masalalari qayta ko‘rib chiqilishi — alifboga qo‘shimcha harflar kiritilishi kerak (Bu fikr tarafdorlari qatorida X. Doniyorov, B. To‘ychiboyev, M. Valiyev va boshqalar bor) [1; 80].

O‘zbek adabiy tilida unli lar tizimini 6 ta deb belgilash fonematik jihatdan asosli bo‘lsa-da, tilning jonli talaffuzi va ayrim dialektal xususiyatlarni to‘liq qamrab olmaydi. Ikkinchi yondashuvda ko‘rsatilgan 8-9 unli tizimi esa tilning fonetik rang-barangligini kengroq aks ettiradi. Shunga qaramay, adabiy til me‘yorlari uchun eng muhim mezon funksional-fonematik yondashuv bo‘lib qoladi. Shu sababli, bizningcha, adabiy til uchun 6 unli tizimi me‘yor sifatida saqlansa ham, ilmiy tahlillarda 8-9 unli variantini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek adabiy tilida unli fonemalar oltita: i, e, a, o, u, o‘. Ular 3 xil jihatdan tasnif qilinadi:

I. Tilning yotiq holatiga ko‘ra:

a) old qator unli lar: i, e, a;



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

b) orqa qator unlilar: o, o', u.

II. Tilning tik holatiga ko'ra unli fonemalar 3 ga bo'linadi:

a) tor unlilar: i, u;

b) o'rta-keng unlilar: e, o';

d) keng unlilar: a, o [2; 15-16].

Unli fonemalarni tasniflashda ham bir nechta olimlar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Jumladan, B.To'ychiboyev tasnifiga to'xtaladigan bo'lsak u quyidagicha tasniflaydi.

Lablarning ishtirokiga ko'ra:

Lablanmagan:

Til oldi: i, e, ə

Til orqa: ы

Lablangan:

Til oldi: ü, ø

Til orqa: u, o'

Tilning tik harakatiga ko'ra:

Tor: i, ы, ü, u

O'rta keng: e, ø

Keng: ə, a [3; 85]

Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi o'zbek adabiy tilida uchta lablanmagan, yana uchta bo'lsa lablangan, lekin To'ychiboyev tasnifida lablanmagan unlilar uchta emas, to'rtta va lablangan unlilar esa beshta qilib tasniflaydi. Biroq bundan tashqari o fonemasi ustida ham biroz tortishuvlar yuz beradi ya'ni prof. V.V. Reshetov o'zbek tilining keng o (ə) unlisini lablanmagan deb hisoblaydi. Biroq S. Otamirzayeva va A. Mahmudov tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida bu unlining kuchsiz lablangan ekanligini aniqlangan.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Undosh fonemalar tasnifi. Undosh fonemalar tizimini tekshiradigan fonetikaning bir qismi konsonantizm deyiladi. Undoshlar o‘zining paydo bo‘lish o‘rni, miqdori va boshqa sifatlari bilan unli fonemalardan farq qiladilar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida undosh fonemalar 24 ta: b, v, g, d, j, j, z, y, k, l, m, n, ng, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h. Ular:

I. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar uchga bo‘linadi:

1. Lab undoshlari:

a) lab-lab undoshlari: b, m, p; b;

lab-tish undoshlari: f, v;

2. Til undoshlari:

a) til oldi undoshlari: t, d, s, z, sh, j, j, ch, n, l, r. Bunda tilning old qismi yuqori milk yoki tish tomon harakat qiladi;

b) til o‘rta undoshi y ning hosil bo‘lishida tilning o‘rta qismi tanglayga yaqinlashadi;

d) til orqa undoshlari — k, g, ng, q, g‘, h. Bunday tovushlar til orqa qismining qattiq yoki yumshoq tanglayga yaqinlashuvi yoki jiplashuvi tufayli hosil bo‘ladi.

3. Bo‘g‘iz tovushi: h.

II. Aytilish usuliga ko‘ra undoshlar 2 ga bo‘linadi:

a) portlovchilar: t, d, p, b, k, q, ch, j, g, m, n, ng. Bu undoshlar talaffuzida yo til uchining yuqori milkka tegishi, yo ikki labning jiplashuvi, yoki til orqa qismining yumshoq tanglayga yopishuvi natijasida havo yo‘li yopilib qoladi. O‘pkadan kelgan havoning zarbi bilan bu to‘siq birdaniga ochiladi;

b) sirg‘aluvchi tovushlar: v, f, z, s, g‘, h, sh, j, y, l, r. Ayrim adabiyotlarda m, n, ng, l, r tovushlari, ularni talaffuz qilish vaqtida burun yo‘lining ochiq bo‘lishi tufayli portlovchi-sirg‘aluvchilar deb atalgan.

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar sonorlar va shovqinlilarga bo‘linadi. Sonorlar — m, n, ng, l, r da shovqinga nisbatan ovoz miqdori ko‘proqdir. Qolgan undoshlar shovqinlilardir.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

IV. Shovqinli undoshlar un paychalarining ishtirokiga ko‘ra jarangli va jarangsiz undoshlarga bo‘linadi. Jaranglilar: b, v, g, d, j, z, y, l, m, n, ng, r, g‘, j va jarangsizlar: p, f, k, t, s, sh, x, ch, h, q.

V. Shuningdek, undoshlar tarkibiga ko‘ra sof va qorishiq (affrikat) bo‘ladi. O‘zbek tilida 2 ta qorishiq undosh: j, ch bor. O‘zbek tilida aytilish usuliga ko‘ra yon, burun (m, n, ng) va titroq (r) tovushi ham ajratiladi [4; 17-18].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek adabiy tilida unli va undosh tovushlar o‘ziga xos fonetik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular talaffuzdagi o‘rni, hosil bo‘lish usuli va nutqdagi vazifasiga ko‘ra tasnif qilinadi. Bu tasniflar o‘zbek tilining fonetik tizimini chuqur o‘rganishda, adabiy talaffuz me‘yorlarini belgilashda hamda tovushlarning o‘zaro farqli jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
2. Muhiddinova X., Xudoyberganova D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Elektron darslik, PDF format, 2024. – Elektron resurs. – URL: <https://share.google/xncoyIAzpY7uDIgTb>
3. Boltayeva O. A. “O‘zbek tilida unli va undosh tovushlar tasnifi” // Yosh Tadqiqotchi Jurnal. — 2022. — Vol. 1, No. 4. — B. 477–484. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6589171>